DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojss-06-11-18 Pages: 206-216

Oriental Journal of Social Sciences

ORIENTAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES

journal homepage:
https://www.supportscience.uz/index.php/ojss



THE IMPACT OF DIGITAL CULTURE ON THE TRANSFORMATION OF PERSONAL WORLDVIEW AND SOCIAL VALUES

Islombek Sodiqov
Doctoral Student (PhD), National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: digital culture, personal worldview, social values, value transformation, value reconfiguration, digital identity, social networks, media and information literacy, national values.

Received: 10.11.2026
Accepted: 11.11.2026
Published: 12.11.2026

Abstract: The article analyses, from a socio-philosophical perspective, how digital culture influences the formation of personal worldview and the transformation of social values. Drawing on the theories of M. McLuhan, M. Castells, R. Inglehart and S. Schwartz and on research into platform society, the author treats digital culture not as a set of technical skills but as a socio-cultural environment in which people obtain information, communicate, present themselves and interpret values. Four mechanisms of influence are identified: change in the sources of knowledge, algorithmic selection of information, public self-presentation, and transnational communication. A conceptual model links each mechanism to its effects on worldview, the opportunities it creates and the protective factors that reduce its risks. The study argues that the digital transformation of values is not their disappearance but their reconfiguration: the content, priority and forms of expression of family, community and moral values change while their core is preserved. National and universal values are shown to be complementary. Recommendations are proposed on media and information literacy, digital content reflecting national culture, and the role of family, mahalla and educational institutions.

RAQAMLI MADANIYATNING SHAXS DUNYOQARASHI VA IJTIMOIY QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASIGA TA’SIRI

Islombek Sodiqov
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: raqamli madaniyat, shaxs dunyoqarashi, ijtimoiy qadriyatlar, qadriyatlar transformatsiyasi, qadriyatlar rekonfiguratsiyasi, raqamli identiklik, ijtimoiy tarmoqlar, media va axborot savodxonligi, milliy qadriyatlar.

Annotatsiya: Maqolada raqamli madaniyatning shaxs dunyoqarashi shakllanishi va ijtimoiy qadriyatlar transformatsiyasiga ta’siri ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. M. Makluen, M. Kastells, R. Inglxart va Sh. Shvarts nazariyalari hamda platformali jamiyat tadqiqotlariga tayanib, muallif raqamli madaniyatni texnik ko‘nikmalar yig‘indisi sifatida emas, balki inson axborot oladigan, muloqot qiladigan, o‘zini namoyon etadigan va qadriyatlarni talqin qiladigan ijtimoiy-madaniy muhit sifatida ko‘rib chiqadi. Ta’sirning to‘rt mexanizmi – bilim manbalarining o‘zgarishi, axborotning algoritmik saralanishi, o‘zini ommaviy namoyon etish va transmilliy muloqot ajratiladi. Taklif etilgan konseptual model har bir mexanizmni uning dunyoqarashga ta’siri, yaratadigan imkoniyatlari va xatarlarini kamaytiruvchi himoya omillari bilan bog‘laydi. Qadriyatlarning raqamli transformatsiyasi ularning yo‘qolishi emas, balki rekonfiguratsiyasi ekani asoslanadi: oila, jamoa va axloqiy qadriyatlarning mazmuni, ustuvorligi va ifodalanish shakllari o‘zgarsa-da, ularning o‘zagi saqlanadi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar bir-birini to‘ldirishi ko‘rsatiladi. Media va axborot savodxonligi, milliy madaniyatni aks ettiruvchi raqamli kontent hamda oila, mahalla va ta’lim muassasalarining roliga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan.

ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВОЙ КУЛЬТУРЫ НА ТРАНСФОРМАЦИЮ МИРОВОЗЗРЕНИЯ ЛИЧНОСТИ И СОЦИАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Исломбек Содиков
докторант Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: цифровая культура, мировоззрение личности, социальные ценности, трансформация ценностей, реконфигурация ценностей, цифровая

Аннотация: В статье с социально-философских позиций анализируется влияние цифровой культуры на формирование мировоззрения личности и

идентичность, социальные сети, медийная и информационная грамотность, национальные ценности.

трансформацию социальных ценностей. Опираясь на теории М. Маклюэна, М. Кастельса, Р. Инглхарта и Ш. Шварца, а также на исследования платформенного общества, автор рассматривает цифровую культуру не как совокупность технических навыков, а как социокультурную среду, в которой человек получает информацию, общается, представляет себя и интерпретирует ценности. Выделены четыре механизма влияния: изменение источников знания, алгоритмический отбор информации, публичная самопрезентация и транснациональная коммуникация. Предложенная концептуальная модель связывает каждый механизм с его воздействием на мировоззрение, создаваемыми возможностями и защитными факторами, снижающими риски. Обосновано, что цифровая трансформация ценностей означает не их исчезновение, а реконфигурацию: меняются содержание, приоритетность и формы выражения семейных, общинных и нравственных ценностей при сохранении их ядра. Показано, что национальные и общечеловеческие ценности дополняют друг друга. Предложены рекомендации по медийной и информационной грамотности, цифровому контенту, отражающему национальную культуру, и роли семьи, махалли и образовательных учреждений.

Kirish. Raqamli texnologiyalarning inson hayotining deyarli barcha sohalariga kirib borishi zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim belgilaridan biriga aylandi. Internet, mobil qurilmalar, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli xizmatlar va sun’iy intellekt nafaqat axborot almashinuvi va kommunikatsiya jarayonlariga, balki insonning kundalik faoliyati, fikrlash tarzi va ijtimoiy munosabatlariga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada raqamli muhit inson hayotining tashqi vositasi bo‘lib qolmasdan, uning dunyoni anglashi va o‘zini jamiyatda namoyon etishining muhim makoniga aylandi.

Dunyoqarash insonning tabiat, jamiyat, boshqa insonlar va o‘zining hayotdagi o‘rni haqidagi bilimlari, e’tiqodlari, qadriyatlari va tasavvurlari tizimidir. An’anaviy jamiyatda shaxs dunyoqarashining shakllanishida oila, ta’lim muassasalari, kitob, ommaviy axborot vositalari, mahalla, madaniy va ma’naviy institutlar asosiy o‘rin egallagan. Bugungi kunda bu institutlar qatoriga raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn hamjamiyatlar va sun’iy intellektga

asoslangan axborot xizmatlari ham qo‘shildi. Shu sababli shaxsning bilim va axborotga munosabati, muloqot usuli, o‘zligini ifodalashi hamda ijtimoiy voqelikka bergan bahosi yangi omillar ta’sirida shakllanmoqda.

O‘zbekistonda raqamli transformatsiya davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi raqamli infratuzilmani rivojlantirish, aholining raqamli savodxonligini oshirish va raqamli xizmatlarni kengaytirishni nazarda tutadi [1]. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini takomillashtirishga oid hujjatlarda esa yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, axborot muhitida ongli va mas’uliyatli fuqaroni shakllantirish vazifasi qo‘yilgan [2]. Ana shu ikki yo‘nalishning uyg‘unligi raqamli madaniyatning shaxs dunyoqarashi va qadriyatlariga ta’sirini ilmiy asosda o‘rganishni dolzarb qiladi.

Mavjud tadqiqotlarda raqamli madaniyat ko‘pincha yo texnik ko‘nikmalar majmui, yoki qadriyatlarga tahdid soluvchi omil sifatida talqin qilinadi. Birinchi yondashuv uning ma’naviy-axloqiy o‘lchamini, ikkinchisi esa uning imkoniyatlarini e’tibordan chetda qoldiradi. Shu munosabat bilan maqolaning maqsadi raqamli madaniyatning shaxs dunyoqarashiga ta’sir etuvchi mexanizmlarini aniqlash va ijtimoiy qadriyatlar transformatsiyasining xarakterini ijtimoiy-falsafiy jihatdan asoslashdan iborat. Tadqiqot quyidagi savollarga javob izlaydi: 1) raqamli madaniyat qaysi mexanizmlar orqali shaxs dunyoqarashiga ta’sir ko‘rsatadi; 2) raqamli muhitda qaysi ijtimoiy qadriyatlar va qanday shaklda o‘zgarmoqda; 3) milliy qadriyatlarning raqamli muhitda mustahkamlanishiga qanday omillar xizmat qiladi. Ilmiy yangilik ta’sir mexanizmlari, imkoniyatlar va himoya omillarini bog‘lovchi konseptual modelda hamda qadriyatlar transformatsiyasini “rekonfiguratsiya” sifatida asoslashda ko‘rinadi.

Adabiyotlar sharhi. Raqamli madaniyatning nazariy asoslarini o‘rganishda kanadalik olim M. Makluenning ommaviy kommunikatsiya vositalariga oid qarashlari muhim o‘rin tutadi. “Understanding Media: The Extensions of Man” asarida aloqa vositalari inson sezgilari va idrokining davomi, ya’ni insonning idrok etishi va ijtimoiy munosabatlarini o‘zgartiruvchi omil sifatida talqin qilinadi [3]. Makluenning “vosita – bu xabar” degan mashhur tezisi kommunikatsiya vositalarini faqat axborot uzatish kanali emas, balki fikrlash tarzini shakllantiruvchi kuch sifatida tushunishga imkon beradi. Bu qarash bugungi raqamli makonda dunyoqarashning shakllanishi, axborotni saralash va voqelikni idrok etish xususiyatlarini tahlil qilish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalarning jamiyatga ta’sirini tizimli o‘rgangan olimlardan biri M. Kastellsdir. “The Rise of the Network Society” asarida tarmoqli jamiyat konsepsiyasi ishlab chiqilib, axborot oqimlari va kommunikatsiya tarmoqlarining ijtimoiy tuzilmalarga ta’siri tahlil qilinadi [4]. “Communication Power” asarida esa muallif ommaviy o‘z-o‘zini kommunikatsiya

(mass self-communication) tushunchasini kiritib, har bir foydalanuvchi bir vaqtning o‘zida axborot iste’molchisi va yaratuvchisiga aylanganini ko‘rsatadi [5]. Bu yondashuv raqamli madaniyat sharoitida an’anaviy ijtimoiy munosabatlar bilan bir qatorda virtual hamjamiyatlar va transmilliy axborot oqimlarining qadriyatlar shakllanishiga ta’sirini o‘rganishni talab etadi.

J. van Deyk, T. Pul va M. de Vaal platformali jamiyat konsepsiyasida raqamli platformalar neytral vosita emas, balki o‘z algoritmlari, biznes-modellari va foydalanish qoidalari orqali ijtimoiy munosabatlar va jamoat qadriyatlariga ta’sir ko‘rsatuvchi tuzilma ekanini asoslaydi [6]. E. Parayzer esa algoritmik saralash foydalanuvchini o‘z qarashlariga mos axborot bilan o‘rab oluvchi “filtr pufagi”ni yuzaga keltirishi mumkinligini ko‘rsatgan [7]. Bu kuzatuvlar dunyoqarashning kengayishi yoki torayishi ko‘p jihatdan axborot muhitining tuzilishiga bog‘liqligini anglatadi.

Shaxsning o‘zini namoyon etishi muammosi I. Gofmanning “o‘zini taqdim etish” nazariyasida chuqur yoritilgan: inson ijtimoiy muloqotda o‘zi haqidagi taassurotni ongli ravishda boshqaradi [8]. Raqamli muhitda bu jarayon ommaviy va doimiy tus oldi. J. Bodriyarning simulyakrlar haqidagi qarashlari tasvir va voqelik o‘rtasidagi chegaraning xiralashuvi masalasini ko‘tarsa [9], Sh. Terkl texnologiya vositasidagi aloqa ko‘payishi bilan yuzma-yuz muloqotning qadri haqidagi savollarni ilgari suradi [10]. Bu qarashlarni mutlaqlashtirmasdan, ulardan raqamli o‘zini taqdim etishning ijtimoiy oqibatlarini tahlil qilish vositasi sifatida foydalanish maqsadga muvofiq.

Qadriyatlar transformatsiyasini tushunish uchun qadriyatlar nazariyasi muhim. Sh. Shvarts qadriyatlarni insonning hayotiy maqsadlarini ifodalovchi va o‘zaro bog‘langan motivatsion tizim sifatida ko‘rib, an’ana, xayrixohlik, xavfsizlik, mustaqillik kabi qadriyatlar o‘rtasidagi muvozanatni ko‘rsatadi [11]. R. Inglxartning madaniy evolyutsiya nazariyasi esa ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar o‘zgarishi bilan qadriyatlar ustuvorligining bosqichma-bosqich o‘zgarishini asoslaydi [12]. Ushbu nazariyalar qadriyatlarni “yo‘qoladigan” yoki “saqlanadigan” deb emas, balki ustuvorligi va ifodalanish shakli o‘zgaradigan tizim sifatida o‘rganishga imkon beradi.

Raqamli muhitda shaxsni himoya qilishning asosiy vositasi sifatida YUNESKO media va axborot savodxonligini ilgari surmoqda: u axborotni izlash, baholash, tanqidiy tahlil qilish va mas’uliyat bilan yaratish ko‘nikmalarini birlashtiradi [13]. YUNESKOning ta’limdagi texnologiyalarga bag‘ishlangan global monitoring hisobotida ham texnologiyalarning ta’sirchanligi ulardan qanday maqsadda va qanday sharoitda foydalanilishiga bog‘liqligi ta’kidlanadi [14]. O‘zbek tadqiqotchilari ishlarida internet madaniyatining zamonaviy transformatsiyasi va raqamlashtirishning milliy qadriyatlar bilan uyg‘unligi masalalari ko‘tarilgan [15; 16]. Biroq raqamli madaniyatning dunyoqarashga ta’sir mexanizmlarini qadriyatlar transformatsiyasi bilan yaxlit modelda bog‘lash masalasi hali yetarli o‘rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tizimli yondashuv asosida raqamli madaniyat, shaxs dunyoqarashi va ijtimoiy qadriyatlar o‘zaro bog‘liq elementlardan tashkil topgan yagona ijtimoiy-madaniy tizim sifatida ko‘rib chiqildi. Bu yondashuv raqamli texnologiyalar ta’sirini alohida hodisalar doirasida emas, balki shaxs, jamiyat va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlar kontekstida tushuntirish imkonini berdi. Tarixiy-mantiqiy tahlil kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi bilan axborot iste’moli va o‘zini namoyon etish shakllarida yuz bergan o‘zgarishlarni izchil kuzatishga xizmat qildi.

Qiyosiy tahlil orqali an’anaviy ijtimoiy-madaniy muhitda shakllangan qadriyatlar bilan raqamli muhitda namoyon bo‘layotgan qarashlar va xulq-atvor shakllari taqqoslandi. Bunda oilaviy munosabatlar, kattalarga hurmat, jamoaviylik, shaxsiy hayot daxlsizligi, mustaqil fikrlash va ijtimoiy mas’uliyat kabi qadriyatlarning raqamli makondagi ifodalanish xususiyatlariga e’tibor qaratildi. Qiyosiy tahlil qadriyatlarning yo‘qolishi yoki saqlanishini oldindan qabul qilmaydi, balki ularning mazmuni va namoyon bo‘lishidagi o‘zgarishlarni aniqlashga yo‘naltirildi. Normativ manba sifatida raqamlashtirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlarga oid davlat hujjatlari tahlil qilindi [1; 2]. Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, empirik so‘rov yoki kontent-tahlil o‘tkazilmagan; taklif etilgan model kelgusidagi empirik tadqiqotlarda sinovdan o‘tkazilishi lozim.

Natijalar. Tahlil raqamli madaniyatning shaxs dunyoqarashiga ta’siri to‘rt asosiy mexanizm orqali amalga oshishini ko‘rsatdi. *Birinchi mexanizm – bilim manbalarining o‘zgarishi.* Ilgari inson bilimni asosan kitob, o‘qituvchi, oila va an’anaviy OAV orqali olgan bo‘lsa, bugungi kunda qidiruv tizimlari, raqamli platformalar, podkastlar va sun’iy intellekt xizmatlari asosiy manbalar qatoriga kirdi. Bu bilimga kirish imkoniyatini keskin kengaytiradi, ammo manbaning ishonchliligini baholash mas’uliyatini foydalanuvchining o‘ziga yuklaydi [13; 14].

Ikkinchi mexanizm – axborotning algoritmik saralanishi. Platformalar foydalanuvchiga uning qiziqishlariga mos kontentni taklif qiladi [6]. Bu qulaylik yaratsa-da, foydalanuvchi uzoq vaqt bir xil qarashlar doirasida qolib ketishi mumkin [7]. Natijada dunyoqarashning kengligi texnologiyaning o‘ziga emas, balki shaxsning turli manbalarga ongli murojaat qilish madaniyatiga bog‘liq bo‘ladi.

Uchinchi mexanizm – o‘zini ommaviy namoyon etish. Ijtimoiy tarmoqlarda obunachilar soni, “layk” va qayta ulashish kabi ko‘rsatkichlar ijtimoiy e’tirofning yangi o‘lchoviga aylandi. Gofman tavsiflagan taassurotni boshqarish jarayoni [8] raqamli muhitda doimiy va ommaviy tus oldi: shaxsiy hayot, oila va kundalik turmush lavhalarini ommaga namoyish qilish holatlari ko‘paydi. Bu holat shaxsiy hayot daxlsizligi va kamtarlik kabi qadriyatlarning raqamli muhitdagi ifodasini qayta o‘ylashni talab etadi.

To‘rtinchi mexanizm – transmilliy muloqot. Raqamli makon insonni boshqa xalqlar va madaniyatlar bilan bevosita bog‘laydi. Buning ijobiy tomoni – dunyoqarashning kengayishi,

bag‘rikenglik va madaniyatlararo muloqotning rivojlanishi. Shu bilan birga, global kontentga tanqidiy yondashmasdan taqlid qilish madaniy identiklikni anglash jarayonini murakkablashtirishi mumkin. Bu holat milliy madaniyatni raqamli muhitda jozibali va sifatli shaklda taqdim etish zaruratini ko‘rsatadi. Tahlil natijalari 1-jadvalda konseptual model sifatida umumlashtirildi.

1-jadval. Raqamli madaniyatning shaxs dunyoqarashiga ta’sir mexanizmlari (muallif modeli)

Mexanizm	Dunyoqarashga ta’siri	Imkoniyatlar	Himoya omillari
Bilim manbalarining o‘zgarishi	Bilim olishning tezlashuvi, manbalar xilma-xilligi	Bilimga keng kirish, uzluksiz ta’lim	Manbani tekshirish ko‘nikmasi, kitobxonlik madaniyati
Algoritmik saralash	Qiziqishlar doirasida qolib ketish ehtimoli	Shaxsga moslashtirilgan ta’lim va axborot	Turli manbalarga ongli murojaat, tanqidiy fikrlash
O‘zini ommaviy namoyon etish	Ijtimoiy e’tirofning raqamli ko‘rsatkichlarga bog‘lanishi	Ijodiy o‘zini ifodalash, ijobiy namunalarni tarqatish	Raqamli odob, shaxsiy hayot daxlsizligini hurmat qilish
Transmilliy muloqot	Dunyoqarashning kengayishi, madaniyatlararo taqqoslash	Bag‘rikenglik, xalqaro hamkorlik, milliy madaniyatni dunyoga tanitish	Milliy o‘zlikni anglash, sifatli milliy raqamli kontent

Mexanizmlarning birgalikdagi ta’siri natijasida raqamli identiklik shakllanmoqda. Raqamli identiklik deganda shaxsning raqamli muhitda o‘zi haqida yaratadigan va boshqalar tomonidan qabul qilinadigan obrazi, uning onlayn faoliyati, muloqot uslubi va tanlagan hamjamiyatlari majmui tushuniladi. Raqamli va real identiklik o‘rtasidagi uyg‘unlik shaxsning ma’naviy barqarorligi belgisi bo‘lsa, ular o‘rtasidagi keskin tafovut ichki ziddiyat va o‘ziga baho berishning beqarorligiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun raqamli identiklikni shakllantirishda samimiylik, mas’uliyat va axloqiy me’yorlarga tayanish muhim ahamiyatga ega. Sun’iy intellekt xizmatlarining kundalik hayotga kirib kelishi esa bu jarayonga yangi o‘lcham qo‘shadi: tayyor javoblarga tayanish odatiga aylansa, mustaqil fikrlash va bilimni o‘zlashtirish ko‘nikmalari susayishi mumkin; aksincha, sun’iy intellektdan ongli foydalanish bilim olish imkoniyatlarini sezilarli kengaytiradi.

Qadriyatlar transformatsiyasi nuqtai nazaridan tahlil quyidagi xulosaga olib keladi: raqamli muhitda qadriyatlar yo‘qolmaydi, balki ularning ifodalanish shakli va ustuvorligi o‘zgaradi. Masalan, oilaviy aloqalar masofadan turib ham doimiy muloqot orqali mustahkamlanmoqda; kattalarga hurmat va mehr-oqibat tabriklar, xayriya tashabbuslari va jamoaviy yordam loyihalari ko‘rinishida raqamli makonda namoyon bo‘lmoqda. Shu bilan birga, yuzma-yuz muloqotning bir qismi virtual muloqotga ko‘chishi muloqot madaniyati va raqamli odob masalalarini kun tartibiga

chiqarmoqda. Bu jarayonni Shvarts va Inglxart nazariyalari ruhida qadriyatlar tizimining yangi sharoitga moslashuvi sifatida talqin qilish mumkin [11; 12].

2-jadval. Ijtimoiy qadriyatlarning raqamli muhitdagi rekonfiguratsiyasi (muallif tahlili)

Qadriyat	An’anaviy ifodalanish shakli	Raqamli muhitdagi ifodasi	Mustahkamlash yo‘nalishi
Oila va qarindoshlik	Yuzma-yuz uchrashuvlar, bayram va marosimlar	Doimiy masofaviy muloqot, oilaviy guruhlar	Raqamli aloqani jonli muloqot bilan uyg‘unlashtirish
Kattalarga hurmat, mehr-oqibat	Ziyorat, xizmat, maslahat so‘rash	Tabriklar, xayriya va yordam tashabbuslari	Avlodlararo raqamli loyihalar, keksalarning raqamli savodxonligi
Jamoaviylik, mahalla	Hashar, mahalla yig‘inlari	Mahalla onlayn guruhlari, jamoaviy loyihalar	Mahalla institutining raqamli imkoniyatlarini kengaytirish
Shaxsiy hayot daxlsizligi, kamtarlik	Oilaviy hayotning yopiqligi	Shaxsiy hayotni ommaga namoyish qilish xavfi	Raqamli odob va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish madaniyati
Bilimga intilish	Kitob, ustoz-shogird an’anasi	Onlayn kurslar, ochiq ta’lim resurslari	Ishonchli manbalar va raqamli kutubxonalarni rivojlantirish

Muhokama. Raqamli madaniyat va milliy qadriyatlar o‘rtasidagi munosabatni “qadriyatlar yo‘qolmoqda” yoki “texnologiyalar ularni o‘z-o‘zidan saqlab qoladi” kabi ikki qarama-qarshi qarash bilan izohlash biryoqlama bo‘ladi. Tahlil natijalari bu jarayonni qadriyatlarning rekonfiguratsiyasi sifatida baholash maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi: qadriyatlar yangi ijtimoiy sharoit, yangi kommunikatsiya vositalari va yangi avlod ehtiyojlari asosida qayta talqin qilinadi, ammo ularning ma’naviy o‘zagi saqlanadi. Makluen ta’kidlaganidek, vosita fikrlash tarzini o‘zgartiradi [3], biroq bu o‘zgarishning yo‘nalishi jamiyatning ma’naviy salohiyati va tarbiya tizimiga bog‘liq.

Raqamli madaniyatni faqat texnik vositalardan foydalanish ko‘nikmasi sifatida talqin qilish ham yetarli emas. U insonning raqamli muhitdagi xatti-harakati, axborotni qabul qilishi va saralashi, muloqot madaniyati, o‘zligini namoyon etishi hamda madaniy mazmun yaratishi bilan bog‘liq murakkab ijtimoiy-madaniy hodisadir. Shu nuqtai nazardan raqamli madaniyat milliy qadriyatlarni passiv qabul qiluvchi emas, balki ularni qayta talqin qilish, yangi shaklda ifodalash va keng auditoriyaga yetkazish imkonini beruvchi muhitdir. Tarixiy va madaniy merosni raqamlashtirish, milliy til, urf-odatlar, oila va mahalla qadriyatlarini sifatli raqamli kontent orqali targ‘ib qilish shu imkoniyatning amaliy ifodasidir.

Bu masalada milliy falsafiy merosimiz ham muhim metodologik tayanch bo‘lib xizmat qiladi. Abu Nasr Forobiyning fozil jamiyat haqidagi ta’limotida jamiyat taraqqiyoti bilim, ezgulik

va hamjihatlikka asoslanishi ta’kidlanadi; Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida esa bilim va aql insonni baxt-saodatga yetaklovchi asosiy fazilatlar sifatida ulug‘lanadi. Bu g‘oyalar raqamli davrda ham dolzarbligini yo‘qotmagan: axborot ko‘pligi sharoitida bilimni axborotdan, haqiqatni taxmindan ajrata olish fazilati shaxs dunyoqarashining asosiy mezoniga aylanmoqda. Demak, raqamli madaniyatni rivojlantirish milliy ma’naviy merosni o‘rganish va targ‘ib qilish bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshirilishi lozim.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar bir-biriga zid emas, balki bir-birini to‘ldiradi. Bag‘rikenglik, bilimga intilish, insonparvarlik va mas’uliyat kabi umuminsoniy qadriyatlar o‘zbek xalqining ma’naviy merosida ham chuqur ildizlarga ega. Raqamli muhitda bu qadriyatlarni uyg‘un targ‘ib qilish shaxsning global axborot makonida o‘z o‘zligini saqlagan holda faol ishtirok etishiga xizmat qiladi. Bu xulosa “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan raqamli savodxonlikni oshirish vazifalari bilan ham hamohangdir [1].

Raqamli madaniyatning ijobiy yoki salbiy ta’siri texnologiyaning o‘zidan ko‘ra undan foydalanish madaniyati, shaxsning media savodxonligi va tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ko‘proq bog‘liq. Shu sababli himoya omillari – oila, mahalla va ta’lim muassasalarining tarbiyaviy roli, media va axborot savodxonligi hamda sifatli milliy raqamli kontent – raqamli muhitda shaxs dunyoqarashini sog‘lom shakllantirishning asosiy shartlari hisoblanadi [2; 13]. Tadqiqotning cheklovi uning nazariy-tahliliy xarakteridadir; taklif etilgan model turli yosh guruhlari o‘rtasida sotsiologik so‘rovlar va raqamli kontent tahlili orqali empirik tekshirishni talab etadi.

Xulosa. Raqamli madaniyat zamonaviy jamiyatda shaxs dunyoqarashi va ijtimoiy qadriyatlar tizimining shakllanishi hamda transformatsiyasini belgilovchi muhim ijtimoiy-madaniy omilga aylandi. U shaxs dunyoqarashining tashqi omili bo‘lish bilan birga, uning ichki mazmunini shakllantiruvchi yangi ijtimoiy-madaniy makon sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Tadqiqot raqamli madaniyatning dunyoqarashga ta’siri to‘rt mexanizm – bilim manbalarining o‘zgarishi, algoritmik saralash, o‘zini ommaviy namoyon etish va transmilliy muloqot orqali amalga oshishini ko‘rsatdi.

Ijtimoiy qadriyatlarning raqamli transformatsiyasi ularning yo‘qolishi emas, balki mazmuni, ustuvorligi va ifodalanish shakllarining rekonfiguratsiyasi ekani asoslandi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar raqamli muhitda bir-birini to‘ldiradi, ularning mustahkamlanishi esa himoya omillari tizimiga bog‘liq.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi. Birinchidan, ta’lim muassasalarida media va axborot savodxonligini fanlararo yondashuv asosida o‘qitish, yoshlarda manbani tekshirish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish. Ikkinchidan, milliy madaniyat, tarix va umuminsoniy qadriyatlarni aks ettiruvchi sifatli raqamli kontent – videofilmlar, podkastlar, interaktiv loyihalar yaratishni qo‘llab-quvvatlash. Uchinchidan, oila va

mahalla institutlarining raqamli imkoniyatlarini kengaytirish, avlodlararo raqamli loyihalar orqali keksa va yosh avlod muloqotini mustahkamlash. To‘rtinchidan, yoshlar orasida ijtimoiy foydali raqamli startaplar va ijodiy tashabbuslarni rag‘batlantirish. Beshinchidan, raqamli odob va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish madaniyatini targ‘ib qiluvchi ma’rifiy dasturlarni ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/5031048

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4307-son qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/4320700

3. McLuhan M. Understanding Media: The Extensions of Man. – New York: McGraw-Hill, 1964.

4. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell Publishers, 1996.

5. Castells M. Communication Power. – Oxford: Oxford University Press, 2009.

6. van Dijck J., Poell T., de Waal M. The Platform Society: Public Values in a Connective World. – New York: Oxford University Press, 2018.

7. Pariser E. The Filter Bubble: What the Internet Is Hiding from You. – New York: Penguin Press, 2011.

8. Goffman E. The Presentation of Self in Everyday Life. – New York: Doubleday, 1959.

9. Baudrillard J. Simulacra and Simulation. – Ann Arbor: University of Michigan Press, 1994.

10. Turkle S. Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other. – New York: Basic Books, 2011.

11. Schwartz S.H. Universals in the Content and Structure of Values: Theoretical Advances and Empirical Tests in 20 Countries // Advances in Experimental Social Psychology. – 1992. – Vol. 25. – P. 1–65. – DOI: 10.1016/S0065-2601(08)60281-6

12. Inglehart R. Cultural Evolution: People’s Motivations Are Changing, and Reshaping the World. – Cambridge: Cambridge University Press, 2018.

13. Grizzle A., Wilson C., Tuazon R. et al. Media and Information Literate Citizens: Think Critically, Click Wisely! – Paris: UNESCO, 2021.

14. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education – A Tool on Whose Terms? – Paris: UNESCO, 2023.

15. Oblomurodova X.N. Internet madaniyatining zamonaviy transformatsiyasi: ijtimoiy-falsafiy tahlil // O‘zMU xabarlari. Ijtimoiy-gumanitar fanlar. – 2026. – № 1/1.10. – B. 167–169.

16. Ostonov J. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida raqamlashtirish va milliy qadriyatlar uyg‘unligi: falsafiy tahlil // O‘zMU xabarlari. Ijtimoiy-gumanitar fanlar. – 2026. – № 1/1.5. – B. 175–177.